

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1./TDVX7627>
UDC: 342.5(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIYA SOHASIDAGI MAXSUS VAKOLATLI DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI FAOLIYATI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Axrorov Adxamjon Asrорqul o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi
kafedrasи katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8193-167X
e-mail: adxam.axrorov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari faoliyati tushunchasi, maqsadi, obyekti va tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, davlat boshqaruvi, ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, kompetensiya masalalari hamda sohani tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organlari tizimi huquqshunos olimlarning ilmiy fikrlari asosida asoslab berilgan. Bundan tashqari, ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi va ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organining kompetensiyasi tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan. Ekologiya sohasini tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organlari tizimini uch turga bo'lishda mazkur davlat boshqaruvi organlarining kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etishi nazarij jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, ekologiya sohasini tartibga soluvchi boshqaruv organi vakolatlarini aniqlashda muhim jihat funksiyalar va vakolatlar o'rta-sidagi zarur muvofiqlikka erishish hisoblanishi, mazkur holatda, avvalo, vakolatlarning mazmuni tegishli boshqaruv organi funksiyalarining mazmuniga to'liq mos kelishi kerakligi hamda davlat boshqaruvi organining vakolat doirasi u tomonidan bajariladigan funksiyalar hajmiga mos kelishi, har bir nazorat obyektiga nisbatan barcha funksiyalarning bajarilishini samarali ta'minlashi kerakligi o'rganilgan. Tad-qiqot yakunida mamlakatimizda ekologiya sohasini tartibga soluvchi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tizimini optimallashtirish zaruriyati keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, davlat boshqaruvi, atrof-muhit, kompetensiya, ijtimoiy munosabatlar, ma'muriy faoliyat, normativ-huquqiy hujjat, ijtimoiy boshqaruv.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СПЕЦИАЛЬНО УПОЛНОМОЧЕННЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В СФЕРЕ ЭКОЛОГИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Ахроров Адхамжон Асроркул угли,
старший преподаватель кафедры «Административное
и финансовое право» Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются понятие, цель, объект и система деятельности специально уполномоченных органов государственного управления в области экологии. Вопросы государственного управления, органов государственного управления в сфере экологии, компетенций и системы органов государственного управления, регулирующих

сферу, основаны на мнениях ученых-правоведов. Кроме того, разработаны авторские определения понятий «государственное управление в сфере экологии» и «компетенция органа государственного управления в сфере экологии». Также теоретически обосновано, что компетенция таких органов государственного управления имеет большое значение при разделении системы органов государственного управления, регулирующих сферу экологии, на 3 вида. В то же время важным аспектом при определении компетенции органа управления, регулирующего экологическую сферу, является достижение необходимого соответствия между функциями и компетенциями, при этом, прежде всего, содержание полномочий должно полностью соответствовать содержанию функций соответствующего органа управления, а объем полномочий органа государственного управления должен соответствовать объему выполняемых им функций, а в отношении каждого объекта контроля должны быть определены обоснованные задачи, которые он должен эффективно выполнять. В заключении исследования обоснована необходимость оптимизации системы компетентных органов государственного управления, регулирующих сферу экологии в нашей стране.

Ключевые слова: экология, государственное управление, окружающая среда, компетенция, социальные отношения, управленческая деятельность, нормативный правовой документ, социальное управление.

ACTIVITIES OF SPECIALLY AUTHORIZED GOVERNMENT BODIES IN THE FIELD OF ECOLOGY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

Akhrorov Adkhamjon Asrorkul ugli,
Senior lecturer, Department of
Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the concept, purpose, object and system of activities of specially authorized government bodies in the field of ecology. In addition, the scientific opinions of legal scholars on the issues of "public administration", "government bodies in the field of ecology", "competencies" and the system of state administration bodies regulating the sphere are analyzed. The author's definitions of the concepts of "public administration in the field of ecology" and "competence of the state administration body in the field of ecology" have been developed. It is also theoretically substantiated that the competence of these government bodies is of great importance when dividing the system of government bodies regulating the sphere of ecology into 3 types. At the same time, an important aspect in determining the competence of the management body regulating the environmental sphere is to achieve the necessary correspondence between functions and competencies. In this case, first of all, the content of the powers should fully correspond to the content of the functions of the relevant management body, and the scope of the powers of the public administration body should correspond to the scope of the functions performed by it, in relation to each object of control everything should be determined and justified that it should effectively ensure implementation. At the end of the study, the necessity of optimizing the system of competent government bodies that regulate the sphere of ecology in our country is substantiated.

Keywords: ecology, public administration, environment, competence, social relations, managerial activity, normative legal document, social management.

Kirish

Biron-bir sohani rivojlantirish, mavjud muammolarni bartaraf etishda mazkur sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat

organlari muhim ahamiyat kashb etadi. Chunki davlat boshqaruvining samarali tizimi yo'lga qo'yilmagan sohalarda ko'plab muammolar yuzaga keladi va o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, davlat boshqaruvi tizimida ekologiya sohasi dolzarb va ko'p qirrali hisoblanadi. Bugungi kunda ma'lum bo'lgan va endi paydo bo'lishi kutilayotgan ekologik muammolar inson salomatligi, normal turmush tarziga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Mazkur muammolarning mavjudligi O'zbekiston Respublikasida ekologiya sohasida samarali davlat boshqaruvini yo'lda qo'yish hamda sohani tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son farmoni bilan davlat boshqaruvi organlari tizimini optimallashtirish nazarda tutildi. Lekin ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari ko'pligicha qolmoqda.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar bo'lgan ilmiylik, xolislik, taqposlash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya hamda boshqa metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda davlat boshqaruvi va davlat boshqaruvi organlari tushunchalariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan davlat boshqaruvi tushunchasiga ko'plab ta'rif berilgan. Jumladan, rus huquqshunos olimi Y.N. Starilovning fikricha, davlat boshqaruviga oid barcha ta'riflarning asosiy mazmuni tegishli tizimni tartibga solish, tashkil etish va unga tartibga solish ta'sirini ko'rsatish uchun davlatning ijtimoiy munosabatlarga maqsadli amaliy ta'siri, ya'ni uning to'g'ri ishlashi va mumkin bo'lgan o'zgarishini ta'minlashni qamrab oladi [1, 33-b.]. G.V. Atamanchuk davlat boshqaruvining uchta majburiy xususiyatiga ishora qiladi: 1) boshqaruv ta'siri davlat hokimiyati kuchiga asoslanadi; 2) davlat boshqaruvining butun jamiyatda keng tarqalganligi (uning umumiyligi); 3) tizimlilik [2, 38-, 92-100-b.].

Y.N. Starilov davlat boshqaruviga keng va tor ma'noda ta'rif bergan. Davlat boshqaruvi keng ma'noda butun davlat faoliyati (vakillik hokimiyati, ijro etuvchi hokimiyat organlari, prokuratura, sud va boshqalar faoliyati)ni tartibga solishdir. Davlat boshqaruvi davlatning barcha faoliyatini maxsus huquq subyektlarining ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini tashkil etish nuqtayi nazaridan tavsiflaydi.

Davlat boshqaruvi tor ma'noda ma'muriy faoliyat, ya'ni Rossiya Federatsiyasi va uning subyektlari darajasida davlat hokimiyati ijroiya organlari faoliyatidir [1, 33-b.].

Y.M. Kozlovning ta'kidlashicha, davlat boshqaruvi – har qanday davlat faoliyati singari qaror qabul qilish, uni ijro etish va uning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat [3, 7-b.].

A.N. Kramnik esa davlat boshqaruvini yagona davlat hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat sifatida tahlil qilish lozimligini ta'kidlaydi [4, 123-129-b.].

Fikrimizcha, Y.N. Starilov tomonidan davlat boshqaruviga berilgan ta'rif mazkur tushunchaning mohiyatini kengroq ochib beradi.

Ta'kidlash joizki, Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi tushunchasining huquqiy ta'rifi qonunchiligidan mavjud emasligiga qaramasdan, normativ-huquqiy hujjatlarda keng qo'llaniladi. Natijada bu masala olimlar tomonidan munozara doirasiga aylangan. Ya'ni huquqshunos olimlar tomonidan mazkur masala va uning mazmuni turlich rareshlarga sabab bo'lmoqda.

K.A. Galichnevov mazkur tushunchaga keng ma'noda yondashib, quyidagicha ta'rif bergan: "Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar va ular birlashmalarining atrof-muhitni salbiy ta'sirlardan himoya qilish, hozirgi va kela-jak avlod uchun qulay sharoit va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan hamda qonunga asoslangan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir" [5, 448-b.].

Mazkur masala yuzasidan tadqiqot olib borgan S.A. Balashenkoning fikricha, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi davlatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, takror ishlab chiqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etish, shuningdek, ushbu munosabatlarda qonun ustuvorligi va fuqarolarning qulay muhitga bo'lgan huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'minlash faoliyatidir. Bu ijtimoiy boshqaruvning tarkibiy qismi bo'lib, uning obyekti tabiiy resurslardan foydalanish, takror ishlab chiqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishni yaxshilash munosabatlari hisoblanadi [6, 341-b.].

Shu bilan birga, A.S. Balashenko ekologiya sohasini boshqarishning quyidagi xususiyatlarini keltirib o'tadi [7, 240-b.]:

birinchidan, bu davlat organlarining ijro etuvchi va boshqaruva xarakterdagи faoliyati;

ikkinchidan, nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni ijro etishga qaratilgan faoliyat, balki norma ijodkorligi hamdir;

uchinchidan, bu aniq munosabatlarni tartibga solish faoliyati, ya'ni tabiatdan foydalanish, ko'paytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlari;

to'rtinchidan, maxsus vakolatli organlar faoliyati.

I.S. Surkova esa atrof-muhitni boshqarishni (tabiat obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilish sohasida boshqaruva) davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyatlarning ijro etuvchi organlarining tabiatni oqilona boshqarish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishni optimallashtirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy faoliyati deb hisoblaydi [8, 100-104-b.].

Mazkur masalaga to'xtalib o'tgan J.T. Xolmo'minovning ta'kidlashicha, ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi tushunchasi jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarida ekologik tartibni ta'minlash, ekologik huquqlarni amalga oshirish va davlat subyektlari tomonidan ekologik majburiyatlarga rioya qilishga qaratilgan organlar-

ning ijro va ma'muriy faoliyatining bir qismidir [9, 43-b.].

Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvining maqsad va vazifalarini tadqiq qilgan Yu.A. Jurayevning qayd etishicha, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi, albatta, tegishli organlarning faoliyati uchta asosiy vazifani bajarishga qaratilgan: 1) tabiiy resurslardan oqilona, intensiv foydalanishi ta'minlash; 2) antropogen omillarning atrof-muhit va ekologik muvozanatga salbiy ta'sirini maksimal darajada cheklash (yo'q qilish); 3) qayta tiklanuvchi resurslarni har tomonlama takomillashtirish va qayta tiklash [10, 43-b.].

Ushbu masala yuzasidan tadqiqot olib borgan Sh.X. Fayziyev quyidagi xulosaga kelgan: birinchidan, turli davlat boshqaruvi organlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvini keng (ijtimoiy) ma'noda ko'rib chiqish lozim; ikkinchidan, davlat boshqaruvi ekologik qonunchilik talablari va normalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan; uchinchidan, davlat boshqaruvi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga antropogen bosimni kamaytirish, tabiatning insonlarga zararli ta'sirining oldini olish va tabiiy obyektlarni muhofaza qilishni ta'minlaydi [11, 171-b.].

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrliga asoslangan holda, aytishimiz mumkinki, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi – bu davlat boshqaruvi organlarining ekologiya sohasini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir. Shuningdek, uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin: birinchidan, nafaqat davlat boshqaruvi organlari, balki qisman davlat hokimiyati oliy organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat; ikkinchidan, ekologiya sohasida amalga oshiriladigan faoliyat; uchinchidan, nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni ijro

etishga qaratilgan, balki norma ijodkorligi faoliyatini ham qamrab oladi.

Ekologiya sohasini tartibga solish bevosita inson va uning hayoti bilan chambarchas bog'liqligi sababli vakolatli davlat boshqaruvi organlari zimmasiga qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

inson salomatligi uchun xavfli moddalarning tabiiy muhitga kirishini asta-sekin kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

respublikada ishlab chiqarish kuchlarni ekologik jihatdan sog'lom joylashtirish va yanada rivojlantirishni ta'minlash;

atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ekologik omillarni aniqlash orqali aholi salomatligi ko'rsatkichlarini monitoring qilish tizimini joriy etish;

tabiiy muhit va tarixiy-madaniy qadriyatlarni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida respublika hududida qo'riqxonalar, tabiiy yodgorliklar, milliy bog'lar yaratish va rivojlantirish;

respublikada ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga erishish;

davlat boshqaruvi ta'sirchanligini oshirish maqsadida boshqaruvning ishontirish va majburlash usullari orqali aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun mazkur sohani tartibga soluvchi organlar ma'muriy-huquqiy mexanizmining nazariy va huquqiy asoslarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Umumiy nazariyaga ko'ra, ekologiya sohasini tartibga solish sohasidagi boshqaruvi mexanizmi boshqaruv usullari, shakllari, funksiyalari va organlar tizimini o'z ichiga oladi.

Ekologiya sohasini tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organlari tizimiga to'xtalib o'tgan A.S. Balashenko respublika va mahalliy davlat hokimiyati organlariga ekologik boshqaruvi tizimining asosiy elementi sifatida qarash lozimligini e'tirof etgan [6, 341-b.]

A.D. Sharkauskenening fikricha esa, haqli ravishda ushbu sohadagi davlat boshqaruvi organlari tizimi turli boshqaruv organlarini birlashtiradi. Ular uchun umumiylig shundaki, ular bir xil faoliyat turi – tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiradilar [12, 341-b.]

Boshqaruv tizimining asosiy elementi ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan boshqaruv organi hisoblanadi. Ekologiya sohasini tartibga soluvchi boshqaruv organi vakolatlarini aniqlashda muhim jihat funksiyalar va vakolatlar o'rtasidagi zarur muvofiqlikka erishishdir. Mazkur holatda, avvalo, vakolatlarning mazmuni tegishli boshqaruv organi funksiyalarining mazmuniga to'liq mos kelishi kerak. Ikkinchidan, davlat boshqaruvi organining vakolat doirasi u tomonidan bajariладиган функциялар хажмига мос келishi, гар бир назорат обьектига нисбатан барча функцияларнинг байарлишини саларали та'minlashi зарур. Шу билан бирга, vakolatlarning turli organlar o'rtasida taqsimланishi funksional maqsadlar va байарладиган vazifalarning tabiatи bilan belgilanishi lozim.

Ta'kidlash joizki, aksariyat yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilinadi. Jumladan, rus huquqshunos olimi M.M. Brinchukning [12, 165-b.] fikriga ko'ra, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish borasidagi davlat boshqaruvi turli vakolatlarga ega va turli darajalarda faoliyat yurituvchi turli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularni uch turga bo'lish mumkin: umumiy vakolati organlar, maxsus vakolati organlar va funksional organlar. Umumiy vakolati organlar tomonidan tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular ushbu faoliyatni o'z vakolatlariga yuklangan boshqa vazifalar – iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy soha (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, mudofaa, kosmik va boshqalar)

ni rivojlanishni boshqarish bilan bir qatorda amalga oshiradilar.

M.M. Brinchuk umumiy vakolatli organlarning vakolat doirasi haqida shunday xulosaga kelgan: "Tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi umumiy vakolatli organlar faoliyatini tafsiflashda shuni ta'kidlash lozimki, mazkur organlar mustaqil ravishda hamda ushbu sohadagi maxsus vakolatli organlar bilan birgalikda o'z tashabbuslari asosida davlat ekologik siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, davlat ekologik dasturlarini ishlab chiqib, vazifalarni hal etadi".

Umumiy vakolatli organlar tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining ayrim funksiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Shu bilan birga, tartibga solish, davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish, tabiatdan foydalanganlik va atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlanri belgilash bo'yicha boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish umumiy vakolatli organlarning vakolatlariga kirmaydi. Bu bilan vakolatli organlar shug'ullanishi muhim va umumiy vakolatli organlar ushbu jarayonga aralashishga haqli emas.

Tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishni ta'minlash muammolarini hal qilishda turli darajadagi faoliyat yurituchi maxsus boshqaruv organlarining roli beqiyosdir. Ularga atrof-muhitni tartibga solish, litsenziyalash, sertifikatlash, nazorat qilish va hokazolar bilan bog'liq eng mas'uliyatli funksiyalar yuklatiladi. Maxsus organlarga faqat jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri sohasidagi muammolarni hal qilish uchun tashkil etilgan organlar kiradi. Federal ijroiya hokimiyatining markaziy organlari tizimida boshqa vazifalar qatorida tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni davlat boshqaruvi bo'yicha maxsus vazifalar yuklangan bir qator organlar mavjud (Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi va b.) [12, 162-b.]

Ushbu masalani o'rgangan S.A. Balashen-koning fikriga ko'ra, vakolatlarning turli organlar o'rtasida taqsimlanishi bajariladigan vazifalarning funksional maqsadi va xususiyati bilan belgilanadi. Vakolatiga muvofiq atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv organlarining tasnifi mavjud bo'lib, umumiy, idoralararo, maxsus va sohaviy vakolatli organlarga bo'linadi [13, 97-b.].

Uning fikriga ko'ra, umumiy vakolatli organlar - tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv bilan bir qatorda, xalq xo'jaligi va boshqa ko'plab faoliyat turlarini amalga oshiradi.

Idoralararo vakolatli boshqaruv organlari, ularning idoraviy yoki boshqa mansubligidan qat'i nazar, barcha tabiiy obyektlar uchun muayyan faoliyat, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati turlarini amalga oshiradilar.

Maxsus vakolatli organlarning xarakterli xususiyati tabiatdan foydalanish, takror ishlab chiqarish, bir yoki bir nechta tabiiy obyektlarni muhofaza qilishni boshqarish bo'yicha ularga yuklangan funksiyalarni bajarishdir [13, 97-b.].

Professor Sh.X. Fayziyevning fikriga ko'ra esa ekologik siyosatni amalga oshirishda turli davlat organlarining vakolatlariga asoslangan ma'muriy-huquqiy mexanizm tizimi umumiy va maxsus vakolatli boshqaruv organlariga bo'linadi [11, 172-b.].

Bizning fikrimizcha, milliy huquq tizimimiz Rossiya Federatsiyasi huquq tizimiga juda yaqinligi va O'zbekiston Respublikasida ekologik sohani tartibga soluvchi vakolatli organlar juda ko'pligini hisobga olgan holda, ularni umumiy, maxsus va funksional organlarga ajratgan holda o'rganish maqsadga muvofiq. Umumiy vakolatli organlarga Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyyati organlari; maxsus vakolatli organlarga esa O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Bosh prokuratura tizimida Tabiatni muhofaza qil-

ishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat hamda yerlardan noqonuniy foydalanishi bartaraf etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuratura va boshqalar; funksional organlarga esa Sog'liqni saqlash vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bojxona qo'mitasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Transport vazirligi, Kadastr agentligi va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, boshqaruv organlarining kompetensiya masalasi nihoyatda murakkab bo'lib, kompleks xarakter kasb etadi. Bu masalaning eng muhim jihat boshqaruv organlarining huquq va majburiyatlarini aniq tartibga solish masalasi bo'lib, ular o'z funksiyalarini amalga oshirishda alohi-da ahamiyatga ega. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida kompetensiyaga quyidagi cha ta'rif beriladi: "kompetensiya – davlat mexanizmi tizimida faoliyat yuritib turgan muayyan davlat organi yoki mansabdar shaxsning yuridik jihatdan belgilab, mustah-kamlab qo'yilgan vakolatlari, huquq va majburiyatlar yi'g'indisi" [14, 356-b.].

Davlat boshqaruvi organlarining kompetensiya masalasida huquqshunos olimlar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A.L. Nedavniyning ta'kidlashicha, davlat boshqaruvi organining kompetensiyasi uning faoliyatining ma'lum bir soha va hududdagi huquq va majburiyatlarining qonun bilan belgilangan doirasidir [15, 64-b.].

B.M. Lazarev esa kompetensiyani davlat boshqaruvi organining davlat hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan vakolatlar tizimi sifatida ta'riflaydi [16, 9-16-b.].

V.G. Atamanchuk mazkur masalani tahlil qilib, quyidagi xulosaga kelgan: "Davlat boshqaruvi organlarining kompetensiyasi jamiyat hayotining muayyan sohasidagi organ funksiyalari va vakolatlari yi'g'indisining huquqiy ifodasi sifatida tavsiflanadi. Davlat boshqaruvi organining funksiyalari mazmuni, u bilan boshqariladigan obyektlar o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati, davlat boshqaruvin-

ing qonun bilan belgilangan usullarning vakolatlari va boshqaruv faoliyatining huquqiy shakllarini aks ettiradi" [17, 240-b.].

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari asosida aytishimiz mumkinki, ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organining kompetensiyasi – bu mazkur organlarga ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar asosida berilgan huquq va majburiyatlar, vakolat va funksiyalar yi'g'indisidir.

Xulosalar

Mavjud ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish samarali ekologik boshqaruvni ta'minlaydigan huquqiy, iqtisodiy va boshqa vositalar tizimini faollashtirishni talab qiladi. Shu sababli tabiatni muhofaza qilish bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining yagona tizimini shakllantirish lozim. Chunki sohani tartibga soluvchi davlat boshqaruvi organlarining ko'pligi o'z vazifalarini yetarli darajada amalga oshirishiga to'sqinlik qiladi. Xususan, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga ko'ra, ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari 8 ta ekanligi keltirilgan. Shuningdek, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga muvofiq, suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati 7 ta davlat boshqaruvi organi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Mazkur organlarning ko'pligi, vakolatlarning tarqoqligi natijasida bu sohadagi davlat nazorati salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Masalan, xalqaro siyosiy konsultant Suna Parkning ta'kidlashicha, oxirgi hisobotlarga ko'ra, O'zbekiston hududining 70 foizi cho'llangan. Chunki bu hudud juda quruq va unda suv resurslari yetarli emas. Cho'llanishga olib keladigan omillardan biri qishloq xo'jaligining oqilona tashkil qilinmaganidir. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi chorva mollarining noto'g'ri o'tlatilishi ham bunga sabab bo'ladi. Chorva mollari o'tlatilisha yuborilganda, ular o'simliklarni ildizi bi-

lan yeb yuboradi. Bu esa degradatsiya jara-yonini tezlashtiradi. Cho'llanish jarayonining borishi va sabablarini kompleks nazorat qilish kerak. Chorvani qachon, qayerda o'tlatish, qishloq xo'jaligini qayerda tashkil qilish mumkinligini belgilab berish lozim. Cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha butun dunyoda texnologiya bor. O'zbekistonda ham ekinlarni tomchilatib sug'orish texnologiyasidan foydalanilmoqda, lekin keng miqyosda emas.

Birgina shu misolning o'zi ham sohadagi muammolar qamrovini to'liq ochib beradi. Suvdan foydalanish sohasidagi davlat nazoratining yetarli darajada amalga oshirilmayotganligini quyidagi jadval misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu jadvaldan ma'lum bo'ladiki, suv resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi bir qancha davlat organlari borligiga qaramasdan, yer osti suvlaridan ruxsatsiz foydalanish holatlari juda ko'p.

Jadval

Ruxsat etuvchi hujjatlarning xatlovi

| № | Hududlar | Xatlovdan o'tkazilgan quduqlar soni | Gidro-geologik xulosa | | Quduq qazish-ga ruxsatnomasi | | Quduqning texnik pasporti | | Suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasi | |
|-------------|-------------------------------|-------------------------------------|-----------------------|-------------|------------------------------|-------------|---------------------------|-------------|--|-------------|
| | | | Bor | Yo'q | Bor | Yo'q | Bor | Yo'q | Bor | Yo'q |
| 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 81 | 81 | 0 | 80 | 1 | 81 | 0 | 0 | 81 |
| 2 | Andijon | 248 | 0 | 248 | 0 | 248 | 0 | 248 | 0 | 248 |
| 3 | Buxoro | 1794 | 0 | 1794 | 0 | 1794 | 1107 | 687 | 976 | 818 |
| 4 | Jizzax | 475 | 0 | 475 | 0 | 475 | 0 | 475 | 0 | 475 |
| 5 | Qashqdaryo | 178 | 0 | 178 | 0 | 178 | 0 | 178 | 0 | 178 |
| 6 | Navoiy | 71 | 1 | 70 | 0 | 71 | 60 | 11 | 20 | 51 |
| 7 | Namangan | 3147 | 677 | 2470 | 336 | 2811 | 134 | 3013 | 1492 | 1655 |
| 8 | Samarqand | 381 | 0 | 381 | 0 | 381 | 0 | 381 | 0 | 381 |
| 9 | Surxandaryo | 796 | 17 | 779 | 1 | 795 | 3 | 793 | 7 | 789 |
| 10 | Sirdaryo | 381 | 0 | 381 | 0 | 381 | 0 | 381 | 0 | 381 |
| 11 | Toshkent | 183 | 135 | 48 | 135 | 48 | 135 | 48 | 34 | 149 |
| 12 | Farg'ona | 139 | 0 | 139 | 0 | 139 | 0 | 139 | 0 | 139 |
| 13 | Xorazm | 77 | 77 | 0 | 77 | 0 | 73 | 4 | 0 | 77 |
| Jami | | 7951 | 988 | 6963 | 629 | 7322 | 1593 | 6358 | 2529 | 5422 |

Turli organlar o'rtasida vakolatni taqsimlash ular tomonidan bajariladigan funksiyalarning maqsadi va mohiyatini hisobga ol-

gan holda amalga oshirilishi lozim. Aks holda, davlat boshqaruvidan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Rossinskiy B.V., Starilov Yu.N. Administrativnoye pravo [Administrative law]. 4th ed., revised and enlarged. Moscow, Norma Publ., 2009, p. 33.
2. Atamanchuk G.V. Obespecheniye ratsional'nosti gosudarstvennogo upravleniya [Ensuring the rationality of public administration]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1990, pp. 38, 92–110.
3. Alekhin A.P., Karmolitskiy A.A., Kozlov Yu.M. Administrativnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Administrative law of the Russian Federation]. Moscow, Zertsalo Publ., 1998, p. 7.

4. Kramnik A.N. Nekotoryye voprosy povysheniya effektivnosti upravleniya obshchestvennym proizvodstvom [Some issues of increasing the efficiency of social production management]. Problems of increasing the efficiency of production management. Minsk, Integral, 1987, pp. 123–129.
5. Golichenkov A.K. Ekologicheskoye pravo Rossii: slovar' yuridicheskikh terminov [Ecological law of Russia: a dictionary of legal terms]. Moscow, 2008, 448 p.
6. Balashenko A.S. Gosudarstvennoye upravleniye v oblasti okhrany okruzhayushchey sredy [State administration in the field of environmental protection]. Minsk, Belarusian State University, 2000, 341 p.
7. Balashenko S.A. et al. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Classic University ed. Minsk, Belarusian State University, 2013, 240 p.
8. Surkova I.S. Ekologicheskoye upravleniye: problemy teoretiko-pravovogo opredeleniya [Ecological management: problems of theoretical and legal definition]. *Legal Research*, Stavropol, 2013, no. 1 (1), pp. 100–104.
9. Kholmuminov Zh.T. Gosudarstvennoye upravleniye v oblasti okhrany okruzhayushchey sredy: ponyatiye, printsipy, funktsii [Public administration in the field of environmental protection: concept, principles, functions]. *Law*, Tashkent, 2004, no. 3, p. 43.
10. Zhurayev Yu.A. Pravo i upravleniye v oblasti ispol'zovaniya i okhrany prirodnoy sredy Respubliki Uzbekistan [Law and management in the field of use and protection of the natural environment of the Republic of Uzbekistan]. Abstract of the Doctor's degree dissertation. Moscow, 1996, p. 43.
11. Fayziyev Sh.Kh. Teoreticheskiye problemy pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan [Theoretical problems of legal support of the environmental policy of the Republic of Uzbekistan]. Abstract of the Doctor's degree dissertation. Tashkent, TSIL, 2004.
12. Brinchuk M.M. Ekologicheskoye pravo (pravo okruzhayushchey sredy) [Environmental law]. Moscow, Yurist Publ., 1998, p. 165.
13. Balashenko S.A. et al. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Eds. T.I. Makarova, V.Ye. Lizgaro. Minsk, Belarusian State University, 2008, p. 97.
14. O'zbekiston yuridik entsiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Eds. R.A. Muhibdinov, N. Toychiyev. Tashkent, Adolat Publ., 2010, 704 p.
15. Nedavniy A.A. Organy gosudarstvennogo upravleniya v SSSR [Government bodies in the USSR]. Moscow, Mysl Publ., 1967, p. 64.
16. Lazarev B.M. Ponyatiye kompetentsii organa gosudarstvennogo upravleniya, yeye elementy i znacheniye: kompetentsiya organov gosudarstvennogo upravleniya SSSR – GDR [The concept of the competence of the state administration body, its elements and meaning: the competence of the state administration bodies of the USSR - GDR]. Moscow, 1984, pp. 9–16.
17. Atamanchuk G.V. Gosudarstvennoye upravleniye, problemy metodologii pravovogo issledovaniya [Public administration, problems of legal research methodology]. Moscow, Yuridicheskaya literatura, 1975, 240 p.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 1-son

VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,

Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahih: M. Patillaryeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.